



Buxoro viloyatida kichik tadbirdorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar-mart

2020-yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirdorlikning YaHMdagи ulushi **65,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirdorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **15,3** birlikni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar–mart oylarida **1263** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **42,1 %** ga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - **388** ta, sanoatda - **230** ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - **192** ta, qurilishda - **113** ta, yashash va ovqatlanishda - **140** ta, tashish va saqlashda - **61** ta tashkil etilgan.

2020–yil yanvar–mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
30,7 %



Sanoat
18,2 %



Qurilish
8,9 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi
15,2 %



Yashash va
ovqatlanish
11,1 %



Tashish va saqlash
4,8 %

2020–yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko’rsatkichlari

	O’lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	16880	20688	3808
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2182	1263	-919
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	62,7	65,1	2,4
Sanoat	%	23,6	26,4	2,8
Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi	%	99,4	98,7	-0,7
Investitsiya	%	38,9	70,5	31,6
Qurilish	%	83,4	88,6	5,2
Savdo	%	82,1	82,0	-0,1
Xizmatlar	%	70,8	67,2	-3,6
Yuk tashish	%	89,3	88,9	-0,4
Yuk aylanmasi	%	83,6	83,6	-
Yo’lovchi tashish	%	98,0	96,2	-1,8
Yo’lovchi aylanmasi	%	97,8	96,3	-1,5
Eksport	%	63,6	42,6	-21,0
Import	%	46,9	50,5	3,6



2020–yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi va iqtisodiy faloliyat turlari bo’yicha asosiy ko’rsatkichlari, %da




2020 – yilning yanvar–mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo’yicha eng ko’pi Buxoro shahrida – 346 ta, G’ijduvon tumanida – 147 ta, Romitan tumanida – 119 ta, Buxoro tumanida – 99 ta, Jondor tumanida – 91 ta va Vobkent tumanida – 77 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko’rsatkich Qorovulbozor tumanida – 27 tani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 – yil yanvar–mart	2020 – yil yanvar–mart	(+;-)
Buxoro viloyati	2182	1263	-919
Buxoro sh.	625	346	-279
Kogon sh.	83	46	-37
<i>tumanlar:</i>			
Olot	84	44	-40
Buxoro	134	99	-35
Vobkent	121	77	-44
G'ijduvon	297	147	-150
Kogon	96	69	-27
Qorako'l	107	72	-35
Qorovulbozor	47	27	-20
Peshku	94	74	-20
Romitan	187	119	-68
Jondor	175	91	-84
Shofirkon	132	52	-80



2020–yil yanvar–mart holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da




2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Buxoro shahrida – 27,4 %, G'ijduvon tumani – 11,6 %, Romitan tumani – 9,4 %, Buxoro tumani - 7,8 %, Jondor tumani - 7,2 %, Vobkent tumani -6,1 %, Peshku tumani - 6,0 %, Qorako'l tumani - 5,7 %, Kogon tumani - 5,5 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+;-)
Jami	2182	1263	-919
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	144	192	48
Sanoat	517	230	-287
Qurilish	190	113	-77
Savdo	914	388	-526
Tashish va saqlash	82	61	-21
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	187	140	-47
Axborot va aloqa	10	15	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	24	31	7
Boshqa faoliyat turlari	114	93	-21

Ma'lumot uchun: 2020–yilning yanvar–mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Buxoro shahri	625	346	-279
G'ijduvon tumani	297	147	-150
Romitan tumani	187	119	-68
Buxoro tumani	134	99	-35
Jondor tumani	175	91	-84
Vobkent tumani	121	77	-44
Peshku tumani	94	74	-20
Qorako'l tumani	107	72	-35
Kogon tumani	96	69	-27

2020-yilning yanvar–mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahrida – 346 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*



2020-yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha Qorovulbozor tumanida - 36,1 birlik, Buxoro shahrida - 24,7 birlik, Kogon tumanida - 22,5 birlik, Romitan tumanida - 18,1 birlik, Buxoro tumanida 16,6-birlik, Peshku tumanida - 15,3 birlik, Jondor tumanida-15,1 birlik va Kogon shahrida -13,1 birlikni tashkil etgan. Qorako'l tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib - 8,7 birlikka to'gri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarni qo'shgan nolda)



2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirdorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



**2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)***



2020-yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida - 36,1 birlik, Buxoro shahrida - 24,7 birlik, Kogon tumanida - 22,5 birlik, Romitan tumanida - 18,1 birlik, Buxoro tumanida - 16,6 birlik, Peshku tumanida esa - 15,3 birlikni tashkil etdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich** Qorovulbozor tumani - 36,1 birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich** Jondor tumani - 15,1 birlik;
- **Eng past ko'rsatkich** Qorako'l tumani - 8,7 birlik;

Bundan ko'riniib turibdiki Qorovulbozor tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Qorako'l tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini o'sish dinamikasi, yanvar - mart holatiga ko'ra % da

2020-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 65,1 % ni tashkil qildi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 62,7 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlikni shahar va tumanlar kesimida iqtisodiyotning asosiy faoliyat turlaridagi ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Buxoro viloyati	26,4	88,6	67,2	70,5
Buxoro shahri	61,1	97,2	50,7	70,5
Kogon shahri	23,3	98,7	90,9	72,0
<i>tumanlar:</i>				
Olot tumani	44,1	60,9	94,8	19,1
Buxoro	100,0	98,9	97,0	99,1
Vobkent	100,0	97,7	91,4	91,4
G’ijduvon	35,5	99,9	95,2	98,0
Kogon	98,1	95,2	92,2	75,6
Qorako’l	52,9	96,0	98,7	65,6
Qorovulbozor	0,7	16,4	45,5	86,1
Peshku	26,4	100,0	95,6	92,9
Romitan	52,0	93,5	93,2	87,4
Jondor	56,0	100,0	93,0	95,8
Shofirkon	59,5	97,8	93,2	93,1

2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Buxoro tumani (100,0 %),
Vobkent (100,0 %),
Kogon tumani (98,1 %),
Buxoro sh. (61,1 %),
Shofirkon (59,5 %) va
Jondor (56,0 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Peshku (100,0 %),
Jondor (100.0 %),
G’ijduvon (99,9 %),
Buxoro (98,9 %)
tumanlarida va Kogon
sh. (98,7%).

Xizmatlarda-


Qorako’l (98,7 %),
Buxoro tumani (97,0 %),
Peshku (95,6 %),
G’ijduvon (95,2 %),
Olot (94,8 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020-yilning yanvar-mart oylarida

-
- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1031,4 mld. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 26,4 %) ni tashkil qildi;
 - 2 1089,3 mld. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 70,5 %) o'zlashtirildi va 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 155,3 % ni tashkil qildi;
 - 3 813,9 mld. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 88,6 %) bajarildi va 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 118,5 % ni tashkil qildi;
 - 4 1473,9 mld. so'mlik xizmatlar ko'rsatib (viloyat jami xizmatlar hajmining 67,2 %), 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil qildi;
 - 5 chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 82,0 % yoki 1958,9 mld. so'mi (o'sish sur'ati 103,2 %) ni tashkil qildi) shakllantirildi;
 - 6 25,8 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 42,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi;
 - 7 Avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,3 % ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,6 %) ko'payishi ta'minlanadi;
 - 8 Yo'lovchi aylanmasining esa 1,3 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,3 %) ko'payishi ta'minlandi;




Kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2020-yil yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirdorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Buxoro tumanida - 100,0 %, Vobkent tumanida-100,0 %, Kogon tumanida - 100,0 %, Peshku tumanida - 100,0 %, Romitan tumanida – 100,0 %, Shofirkon tumanida – 100,0 %, Qorako'l tumanida – 98,9 % va Jondor tumanida – 79,3 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida – 5,5 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jami importdaqi ulushi, % da



2020-yil yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buxoro tumanida – 100,0 %, Vobkent tumanida – 100,0 %, Kogon tumanida – 100,0 %, Qorako'l tumanida – 100,0 %, Peshku tumanida - 100,0 %, Shofirkon tumanida – 100,0 % va Kogon shahri – 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida – 0,9 % ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (269,6 mlrd. so'm), Kogon tumani (128,6 mlrd. so'm), Gijduvonda (113,0 mlrd. so'm), Vobkent (80,8 mlrd. so'm) va Buxoro (71,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumanida (13,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.





2020-yil yanvar–mart holatiga ko’ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar bo’yicha ulushi, % da




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Vobkent tumani (100,0 %), Buxoro tumani (100,0 %), Kogon tumani (98,1 %), Buxoro sh. (61,6 %), Shofirkon tumani (59,5 %), Jondor tumani (56,0 %), Romitan tumani (52,0 %) va Olot (44,1 %) tumanlari tashkil etdi. Qorovulbozor tumanida (0,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo’lib qolmoqda.





**2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo`yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Shahar va tumanlar bo`yicha eng ko`p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (510,3 mlrd. so'm), G'ijduvon (390,5 mlrd. so'm), Qorako'l (227,8 mlrd. so'm), Romitan (143,1 mlrd. so'm) va Jondor (112,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (221,7 mlrd. so'm), Romitan (89,9 mlrd. so'm), G'ijduvon (70,9 mlrd. so'm), Shofirkon (68,1 mlrd. so'm), Buxoro (63,5 mlrd. so'm), Kogon (62,5 mlrd. so'm), Peshku (54,2 mlrd. so'm) hamda Jondor (45,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





2020-yilning yanvar–mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Buxoro shahri (673,4 mlrd. so'm), G'ijduvon (215,8 mlrd. so'm), Buxoro (78,3 mlrd. so'm), Vobkent (70,1 mlrd. so'm) tumanlari va Kogon (65,0 mlrd. so'm) shahar hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **953** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi ulushi – 5,9 % (56 ta), sanoatda – 16,8 % (160 ta), qurilishda – 12,8 % (122 ta), savdoda – 31,1 % (297 ta), xizmatlar sohasida – 33,4 % (318 ta).

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar,ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020–yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan tushgan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020–yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan tushgan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020–yilning I choragida oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5,7 punktga oshdi. Shu bilan birga boshqa faoliyat korxonalari o'rtasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.


Joriy yilning I choragida o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 6,4 punktga, xizmatlar sohasida 1,3 punktga, sanoat sohasida 0,9 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019–2020–yillarning I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi Sanoat Qurilish Savdo Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020–yilning I choragida, oxirgi hisobot yilda mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, iqtisodiy faoliyatning barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi pasaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8,3 punktga, sanoat sohasida 1,1 punktga, savdoda 2,7 punktga, qurilishda 1,4 punktga pasaydi.




Oxirgi hisobot yilda sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019–2020–yillarning I chorakda iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020-yilning I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 124 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 19 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 15,3 %), qurilish – 11 ta (8,9 %), savdo – 44 ta (35,5%) va xizmatlar – 34 ta (27,4 %), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 16 ta (12,9 %).

2020– yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,% da






2020–yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020–yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra 2020-yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

2019–2020–yillar I chorakdagi yangi tashkil etilgan korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'rta, 2020-yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 18,8 punktga, sanoatda 18,4 punktga, qurilishda 15,1 punktga, savdoda 15,9 punktga pasaydi, xizmatlar sohasida esa 3,3 punktga ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 18,7 punktga, sanoatda 2,6 punktga, savdoda 1,5 punktga, xizmatlar sohasida 5,6 punktga kamaydi.

